

TERMINOLOGIYANING LINGVISTIKA OBYEKTI SIFATIDA O'RGANILISHI "DEVONI LUG'OTIT-TURK" ASARI MISOLIDA

Shomurodova Sabohat

Termiz davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Terminologiyaning lingvistik obyekti sifatida o'rganilishi" haqida atroflicha yoritiladi.

Annotation: This article elaborates on "The study of terminology as a linguistic object".

Kalit so'zlar: Terminologiya, termin, atama, lingvistika, obyekt, leksika.

Key words: Terminology, the term, linguistic, object, lexicon.

Ma'lumki, terminologiyaning lingvistika obyekti sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologik atamalarni lingvistik omillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuni e'tirof etish joizki, muayyan adabiy tildagi terminlar inson hayotida keng qo'llanilganda, leksikamizdagi terminlarning boyishiga asos bo'ladi. Adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelikdir. O'zbek terminologiyasi ham ana shunday xususiyatlarga egaligi bilan ahamiyatlidir. Terminologiyaning obyekt sifatida o'rganilishida turkiy tilning qomusiy asari hisoblangan "Devoni lug'otit-turk" asari muhim manba hisoblanadi. Ushbu asardagi qadimgi turkiy tildagi leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli o'rinni egallaganligi bilan ajralib turadi. Ushbu asardagi turli soha terminologiyasi asosan sof turkiy tub hamda yasama so'zlar hamda buddizm va monizim ta'sirida sug'd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o'zlashgan terminlar uchratishimiz mumkin. Xususan, ariq-"anhor", aqur-"otxona", qar-"qor", qara-"qora", raqa-"noaniq", azuq-"oziq-ovqat", aquz-"noaniq", qozi-"qo'zi", budun-"xalq", tangri-"xudo", alim, berim, barg'u-"o'lja", darug'a-"mingboshi", dozor-"tamg'a", ko'rug-"ayg'oqchi" va hokazo kabi sof turkiy terminlar, tegin-"xonzoda", tutug'-"tuman hokimi", xan-"xon" kabi eroncha, cherik-"qo'shin", sart-"savdogar" kabi Sanskrit tilidan o'zlashgan terminlar faol qo'llanishda bo'lgan. Terminologiyaning shakllanishi va taraqqiy etishi tilning lingvistik obyekti va so'z yasalishi qononiyatlari asosida sodir bo'ladi. Terminlarning ma'lum davr doirasida qo'llanilib, bora – bora o'sha termin o'zgarib uning muqobili

boshqa termin bilan atalishi ham ahamiyatlidir. Misollar tariqasida keltiradigan bo'lsak, qadimda "mirob" termini hozirgi davr leksikamizda "suvchi" tarzida aytilishi terminlarning ma'lum davr doirasida o'zgarib, hamda yaxlitlangan holatlarini ko'rishimiz mumkin. Eski o'zbek tili hozirgi o'zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqori bosqichga ko'tarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi ta'sir, ya'ni ekstralingvistik omillarning roli muhim hisoblanadi. Bularga misol qilib bir necha terminlarni keltiradigan bo'lsak: "kompyuter", "monitor", "onlayn", "oflayn", "klaviyatura" kabi terminlar. So'zlashuv uslubida faol qo'llaniladigan ruscha-baynalmilal terminlar: "davay", "uje", "domla", "prikaz", "prosta", "leksiya", "sessiya", "zaryadchik", "narmalniy", "naushnik", "mojna", "telefon", "televizor", "mashina", "gospital", "bankomat", "visa", "passport", "vagon", "vokzal", "gadjed", "fitness", "feyk", "fiting", "islomofobiya", "karaoke", "java", "insayder" kabi terminlar tashqi manba asosida boyiganligiga guvoh bo'lamiz. Yuqorida qayd qilingan o'zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarning turmushdan chiqib ketishi bois iste'moldan qoldi, ayrimlari o'zbek tili so'z xazinasida mavjud muqobillari bilan almashtirildi, salmoqli qismi esa o'zbek tili terminologiyasida faol qo'llanishda davom etib kelmoqda. Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etishi tilning lingvistik obyekt va so'z yasaliishi qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan terminlarning aksariyati tarixiy hisoblanadi, lekin ushbu terminlarning dastlabki ma'nolari hozirgi o'zbek tilidagi so'zlardan tubdan farq qilishini, va bitta terminning turli xil ma'nolari borligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimiz isboti o'laroq, turkiy tillarning qomusiy asari hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning yana "Devoni lug'otit-turk" asarida zikr qilingan bir necha terminlarga yuzlanamiz. Dastavval, "chanoq" so'zini ko'raylik:

1. Čanaq (chanaq) ushbu termin dastlab o'yib yasalgan kichik hajmdagi yog'och idish va kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qo'llangan. Keyinchalik bu leksema eski o'zbek adabiy tilida "hayvonlarning suv ichadigan idishi" ma'nosida ham qo'llanilgan. O'g'uzchadan o'zlashgan so'z hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ushbu so'zning ikkita ma'nosi mavjud. Birinchisi, tibbiyot terminologiyasi tizimida maxsus ma'noni ifodalovchi termin sifatida kirgan bo'lib, "tos suyagi", "kosasimon o'yiqli suyak" ma'nolarini ifodalagan. Ikkinchisi, paxta endi ochilayotganida ko'rak qismi chanoq deb nom olgan.

2. Baliq (baliq) ushbu terminning ham bir qancha ma'nolari mavjud. Dastlabki ma'nosi qadimgi turkiy tilda ham o'z ma'nosida ya'ni zoologik termin sifatida ishlatilgan. Buni

quyidagi maqol misolida ko'ramiz: Baliq suvda, kōzi taštīn. Ma'nosi, "Baliqning o'zi suvda, ko'zi tashda". Bu maqol narsaning ichida turib, tushunolmay qoluvchilarga qarata qo'llanadi. Ikkinchi ma'nosi loy ma'nosida ham ishlatilgan. Ushbu so'zni arg'u va ba'zi o'g'izlar tilda iste'molda bo'lgan. Ba'zi arg'ular uch undoshni yonma-yon qo'yib, baliq deydilar. Holbuki, turkchada ikki undoshgina qator kelishi mumkin. Arg'uliklar tilida buzuvchilik, zaiflik bor. Uchinchi ma'nosi johiliya davridagi turklar va uyg'urliklar tilida "shahar". Holbuki hozirgi o'zbek adabiy tiliga tegishli desak mubolag'a bo'lmaydi. Uyg'urlikning eng katta shahar lariga Beshbaliq deyilishi shundan kelib chiqqan. Beshbaliq- "besh shahar" demakdir. Uyg'urliklar boshqa bir shaharlariga Yangibaliq (yangi shahar) deydilar.

3. Qabaq hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "qovoq" so'zidir. Ya'ni ko'zning qovog'i. Ikkinchi ma'nosi "qovoq" sabzavot. Ho'lligicha yeyiladigan qovoq. Uchinchi ma'nosi qizning qizligi ma'nosida qo'llanilgan.

4. Bašaq (bashaq) – o'q va nayza uchidagi temir. Ikkinchi ma'nosi to'piq ya'ni tana a'zosi. O'g'iz va qipchoqlar tīt orttirib, bašmaq deydilar.

4. Chumaq- aso, xassa demakdir. Ikkinchi ma'nosi uyg'urliklar va musulmon bo'lmagan hamma xalq musulmonlari **chumaq eri** der edilar, "musulmonlardan biri demakdir.

5. Turuq- har narsaning orig'i, boshqa ma'noda esa Farg'ona bilan Koshg'ar orasidagi qiyin, baland yo'l, dovon degan ma'noda ham qo'llanilgan.

6. To'piq – chovgan bilan uriladigan koptok, to'p ma'nosida va "bichilgan" ma'noni ham anglatgan. (153-154-betlar).

Ushbu maxsus tushunchalarni atash usuli an'anaviy, obyektiv hamda juda sermahsul hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, terminologiyaning lingvistik obyekt sifatida o'rganishda o'zlashma so'zlarning umumiste'molimizdagi o'rnini va muayyan terminlarning omonimiya, sinonimiya hamda polisemiya tomonlarini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidulla Dadaboyev "O'zbek terminologiyasi". Toshkent nashriyoti uyi, Toshkent-2019.
2. Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'otit-turk". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2017.
3. Otabek Shukurov "Mustaqillik davri o'zlashmalarining qisqacha izohli lug'ati". Qarshi "Intelekt" Nashriyoti-2022.